# OLIY TA'LIMDA O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

CHDPU Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti
(ingliz tili) **Iskandarova Asalxon Pulatovna**

Ilmiy rahbar: CHDPU pedagogika fakulteti
"Umumiy pedagogika"kafedrasi v.b dotsenti
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD),
**Karshiyeva Dilbar Eshpulatovna.**
https://orcid.org/0009-0009-7105-2792
Email: d.karshiyeva1986@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda talaba markazli yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim modeli, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim hamda interaktiv metodlarning samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lim, oliy ta'lim, pedagogik texnologiya, kompetensiya, raqamli ta'lim, masofaviy ta'lim, interaktiv metodlar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются современные тенденции в преподавании в системе высшего образования. В исследовании рассматривается эффективность студентоцентрированного подхода, компетентностно-ориентированной модели образования, цифровых технологий, дистанционного обучения и интерактивных методов. Результаты исследования показывают, что внедрение современных педагогических технологий повышает качество и эффективность образования.

**Ключевые слова:** современное образование, высшее образование, педагогические технологии, компетентностный подход, цифровое образование, дистанционное обучение, интерактивные методы.

**Abstract:** This article analyzes modern trends in teaching in the higher education system. The study examines the effectiveness of a student-centered approach, a competency-based education model, digital technologies, distance learning, and interactive methods. The results of the study show that the introduction of modern pedagogical technologies increases the quality and efficiency of education.

**Keywords:** modern education, higher education, pedagogical technology, competence, digital education, distance learning, interactive methods.

## KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Fan, texnologiya va iqtisodiyotning tez sur’atlarda rivojlanishi natijasida oliy ta’lim mazmuni, metodlari va shakllariga yangi talablar qo‘yilmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki talabalarni mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, innovatsion g‘oyalar yaratish kabi kompetensiyalar bilan qurollantirishga qaratilgan. Hozirgi davrda oliy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, interfaol metodlar va kompetensiyaga asoslangan yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Bu esa o‘qitish samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlash imkonini beradi. So‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimi jamiyatning tezkor rivojlanishi, globallashuv jarayonlari hamda raqamli texnologiyalarning keng kirib kelishi ta’sirida sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda.[1] Zamonaviy mehnat bozori mustaqil fikrlaydigan, innovatsion yondasha oladigan, kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni talab etadi. Shu sababli an’anaviy o‘qitish usullarini takomillashtirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, talabalarning bilim olish motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy tendensiyalar o‘qitish jarayonini faqat ma’lumot uzatish emas, balki shaxs rivojiga xizmat qiluvchi faol jarayon sifatida tashkil etishni talab qiladi.

Oliy ta’limda o‘qitishning zamonaviy tendensiyalariga quyidagilar kiradi:

- talaba markazli ta’lim modeli;
- kompetensiyaviy yondashuv;
- raqamli texnologiyalarni qo‘llash;
- masofaviy va aralash ta’lim;
- interaktiv metodlar;
- individual ta’lim trayektoriyasi;
- hayot davomida ta’lim olish konsepsiyasi.

Oliy ta’limda o‘qitishning zamonaviy tendensiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning samaradorligini oshirishda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini o‘rganish. Oliy ta’limda qo‘llanilayotgan innovatsion metodlarni tahlil qilish. [1;67] Zamonaviy tendensiyalarning ta’lim sifati va samaradorligiga ta’sirini aniqlash muhum ahamiyat kasb etadi.

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan tahlil, taqqoslash metodiga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi pedagogik adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda normativ hujjatlar tahlil qilindi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining mazmuni va mohiyati o‘rganildi. An’anaviy ta’lim va zamonaviy o‘qitish yondashuvlari o‘zaro taqqoslandi. Ularning afzallik va kamchiliklari aniqlashtirildi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.

Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi kuzatildi. metodlar ustuvor deb belgilandi. Olingan natijalar umumlashtirilib, foiz ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilindi.

Ta’lim jarayonida quyidagi pedagogik texnologiyalar zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- muammoli ta’lim
- interaktiv metodlar
- masofaviy ta’lim platformalari
- multimedia vositalari
- loyiha asosida o‘qitish

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interaktiv metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Talabalar dars jarayonida faol ishtirok etib, o‘z fikrini erkin bayon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

- talabalar faolligi oshdi;
- mustaqil ta’lim ko‘nikmalari shakllandi;
- o‘quv motivatsiyasi kuchaydi.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga ta’siri elektron ta’lim platformalari dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Video darslar, elektron testlar, virtual laboratoriyalar ta’lim sifatini yaxshilaydi.

Masofaviy ta’limning ijobiy jihatlari:[2]

- moslashuvchanlik;
- qulaylik;
- resurslardan keng foydalanish.

Interaktiv metodlar natijadorligi interaktiv metodlar talabalarning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi.

Eng samarali metodlar:

- aqliy hujum
- debat
- keys-stadi
- klaster

[2] Saxiyeva N. Zamonaviy ta’limning global tendensiyalari. 2025 yil 24 oktyabr

- rolli o‘yinlar

Kompetensiyaviy yondashuv talabalarda kasbiy ko‘nikmalar shakllanishi kuzatildi. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyati oshdi.

**MUHOKAMA**

Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar oliy ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, talaba markazli yondashuv o‘quv jarayonining sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta’limni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Masofaviy ta’lim imkoniyatlari ta’lim olish chegaralarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish zarur. Kompetensiyaviy yondashuv mutaxassis tayyorlash sifatini oshiradi. Zamonaviy ta’lim modeli nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Zamonaviy pedagogik tendensiyalar ta’lim sifatini oshirish, innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash hamda mehnat bozorining ehtiyojlariga mos kadrlar yetishtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirib, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limda o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Talaba markazli yondashuv, kompetensiyaviy model, interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshiradi. Mazkur yondashuvlarni amaliyotga joriy etish orqali zamonaviy, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Oliy ta’lim tizimidagi zamonaviy tendensiyalar ta’lim jarayonini takomillashtirish, innovatsion metodlarni joriy etish va talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Raqamlashtirish, individual yondashuv, masofaviy ta’lim, xalqaro integratsiya kabi omillar oliy ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Kelajakda oliy ta’lim tizimi yanada moslashuvchan, innovatsion va texnologik jihatdan rivojlangan shaklga ega bo‘lishi kutilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g’risidagi qarori -4860 13.10.2020

3.O‘rinov B., Sultonov B., Umarov A. ECTS kredit-modul tizimi asoslari. – Toshkent, 2020.

4.Saxiyeva N. Zamonaviy ta’limning global tendensiyalari. 2025 yil 24 oktyabr

5.Boloniya deklaratsiyasi (1999).